


ISSIQXONALARDA KIVI YETISHTIRISH LOYIHASI





Issiqxonalarda kivi yetishtirish loyihasi / F.Rashidov, M.Faxrutdinov – Toshkent, 2024.

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi hamda nashr ettirildi.

Mualliflar:

Rashidov F.I. - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Faxrutdinov M.Z - Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Mevachilik va uzumchilik" kafedrasida professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori.

Loyiha ishtirokchilari:

Otamurodov J.Y., Babamuhamedov A.A., Ermatov F.G' – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari

Taqrizchilar:

Rizaev N.K. - O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrasida professori, iqtisod fanlari doktori.

Jo'raev S.T - Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Seleksiya va urug'chiligi" kafedrasida mudiri professor, qishloq xo'jaligi fanlari doktori.

Tahrirchi:

Dilfuza Narxujayeva – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfasini hisoblagan.**

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB - 2024

© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkilot (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, 60411300 - "Biznesni boshqarish" (Bakalavriat), 70411301 - "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura) hamda 08.00.15 - "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyihani menejmenti va marketingi, loyihani texnik jihatlarini, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyihani rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmas, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga

ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektni "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta korxonalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvdagi nutqidani**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarning glossariysi	8	6.1. Marketing konsepsiyasi.....	35
1. Loyihaning maqsadi	10	7. Mahsulot yetishtirish rejasi.....	38
1.1. Loyihaning maqsadi.....	11	7.1. Mahsulot yetishtirish rejasi.....	39
2. Loyiha tashabbuskori.....	12	8. HR rejasi.....	42
2.1. Loyiha tashabbuskori	13	8.1. HR rejasi	43
3. Loyiha strategiyasi.....	14	9. Moliyaviy reja	44
3.1. Loyiha strategiyasi	15	9.1. Moliyaviy reja	45
4. Issiqxonada kivi yetishtirishni tashkil qilish.....	16	9.1. Loyihani amalga oshirish uchun olinadigan kredit shartlari	46
4.1. Kivi haqida.....	17	9.2. Loyihani moliyalashtirish: moliyalashtirish mexanizmi va manbalari.....	46
4.2. Xom-ashyo haqida	20	10. Xulosalar.....	48
4.3. Jihoz va uskunalar. Ishlab chiqarish jarayoni	30	10.1. Xulosalar	49
5. Infrastruktura	32	11. Loyihaning hisob-kitob qismi.....	52
5.1. Infrastruktura	33		
6. Marketing konsepsiyasi.....	34		

MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYSI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaninig farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potentsial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisobga olgan holda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.



1. LOYIHANING MAQSADI



1.1. LOYIHANING MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi issiqxonalarda kivi yetishtirishni tashkil etishdir.

Bundan tashqari, loyihani ishga tushirish orqali respublika aholisining ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hamda yangi ish o'rinlari tashkil etish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun, 20 sotixli issiqxonada kivi yetishtirishni tashkil etish va investitsion davrda issiqxonani jihozlash va ko'chatlarni ekish uchun, umumiy qiymati 170 mln. so'm miqdorida investitsiya (bundan 100 mln. so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish rejalashtirilgan.

(ming so'mda)

Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
		Kredit	%	O'z mablag'lari	%
Tomchilatib sug'orish to'plami	10000	10 000	10%	-	0%
Issiqxona majmuasining qurilish-montaj ishlari	60 000	10 000	17%	50000	83%
Kivi ko'chatlari 2 yillik	80 000	80 000	100%	-	0%
Jami asosiy vositalar	150 000	100 000	67%	50 000	33%
Aylanma kapital	20 000		0%	20 000	100%
Jami	170 000	100 000	59%	70 000	41%

Loyiha tashabbuskoriga ushbu loyihani amalga oshirish eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2.1. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyatiga issiqxonalarda kivi yetishtirishni tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari kiradi.

Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab tadbikorlik subyekti hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida milliy va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, qishloq xo'jaligi va rezavor mevalar yetishtirish sohasida tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



3. LOYIHA STRATEGIYASI



3.1. LOYIHA STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsiya muhiti yaratildi, bu birinchi navbatda har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda issiqxonada kivi rezavor mevasini yetishtirish loyihasini tashkil etishdan iborat.



4. ISSIQXONADA KIVI YETISHTIRISHNI TASHKIL QILISH



4.1. KIVI HAQIDA

Kivi birinchi bo'lib XII asrda "Song" sulolasi davrida yetishtirilgan XX asrning boshlarida kivi yetishtirish Xitoydan Yangi Zelandiyaga tarqaldi. Meva ikkinchi jahon urushi paytida Yangi Zelandiyada joylashgan Britaniya va Amerika harbiy xizmatchilari orasida mashhur bo'ldi va keng tarqala boshladi. Avval Buyuk Britaniyaga, keyin esa 1960-yillarda Kaliforniyaga eksport qilindi.

Kivi – bu rezavor meva.

Xitoyda bu rezavor meva imperatorlar tomonidan ulug'lanilgan: undan afrodisyak sifatida foydalanishgan.

Kivi eng beor o'simliklardan biri hisoblanadi: uni qurt-qumursqalar yoqtirishmaydi. Lekin, kivi ob-havo o'zgarishlariga juda ta'sirchan bo'lib, sovuqqa, jazirama yozga chidamsiz bo'lib, ildizlari doimo suvda bo'lishi kerak. Bunday vaqtda u bir kunda 5 litrgacha suv ichadi. Kivini 84% ini suv tashkil qiladi. Shu xususiyati va kaloriyasi pastligi sabab ham uni parhezboq mahsulotlar safiga kiritishni yoqtirishadi.





Kivi sitrus mevasi tropik mamlakatlarda o'sadi. Bu mevani yurtimizga import qilish anchagina sarf xarajat talab etadi. Shuning uchun kivi o'simligini O'zbekiston sharoitida o'stirish va parvarishlash choralarini ishlab chiqish kerak. Shunday holatlarni nazarda tutgan holda, Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida bog'bonlarimiz kivi o'simligini uy sharoitida iqlimlashtirishdi va mo'l hosil olmoqda.

Tadqiqotlarimizga ko'ra kivi o'simligini iqlimlashtirish texnologiyasini o'rgangan holda, ushbu qo'llanmada kivi o'simligi ko'chatini yetishtirish, uni parvarishlash va undan hosil olishgacha bo'lgan jarayonlarni bayon etganmiz.

Nima uchun biz aynan kivi o'simligini iqlimlashtirayapmiz?— degan savol tug'ilishi mumkin. Kivi mevasi juda ko'p foydali xususiyatlarga ega, xususan xomilador ayollar uchun foydali bo'lgan Mg(Magniy) ga va C vitaminiga boy. Bu esa kuchli antioksidant bo'lib, organizmni tez toliqib qolishidan saqlaydi,

immunitetni oshiradi, yallig'lanish va miyaga qon quyilish xavfini kamaytiradi

Kivi terini tozalash, namlash, yoshartirish, oziqlantirish uchun kosmetik niqoblar tayyorlashda ham ishlatiladi. Kivi o'simligi o'zining beqiyos ta'mi, vitamanga boyligi, xushbo'y hidi, qayta ishlashga yaroqliligi, yetishtirish, ko'paytirishning u qadar murakkab emasligi va shu kabi bir qator afzalliklari bilan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yuqori baholanadi.

Ushbu kivi o'simligining yetishtirish texnologiyasi quyidagicha:

- Dastlab pishgan kivi mevasi olinadi, undan urug'i ajratilib, urug'ini suvda yuvib dokaga o'rab 1 kun muddatga quritib qo'yiladi.
- Ekish uchun tuproq qorishmasi: tayyorlangan kivi urug'larini tuproq qorishmasiga ekiladi. Usti oq selafan paketga o'rab, 20 kunga 25°C da parnikda parvarish qilinadi.
- So'ng kivi o'simligi o'sib chiqa boshlaydi. Selafan paketni olib suv quyiladi, kivi o'simligi issiqsevar lekin, quyosh nurini unchalik yoqtirmaydi, shuning uchun parnikda yaxshi o'sadi. Uning temperaturasini kuniga nazorat qilib turish zarur agar, harorat pastlab ketadigan bo'lsa o'sishi sekinlashib ketadi.

Kivini kasalliklardan himoya qilish va iqlim o'zgarishlariga chidamli qilish uchun kemeral lyuks, agrikola, kemeral universal degan o'g'itlar ishlatiladi. Mana shu o'g'itlar yordamida o'simlikning yaxshi o'sishi ta'minlandi. O'simlik to gullab meva hosil qilgunicha shunday sharoitda bir xilda parvarish qilinadi.

Kivi o'simligi 6-7 yilda meva hosil qiladi, shundan keyin har yili meva tuga boshlaydi. Kivi o'simligini zararlaydigan zararkunanda va kasalliklar juda kam. O'stirish uncha qiyinchilik tug'dirmaydi.

Kivini shiralar zararlashi mumkin unga qarshi kurash choralari vaqtida olib borilsa, yaxshi natijaga erishiladi.

4.2. XOM-ASHYO HAQIDA

Kivi o'simligi mevalarini ko'pgina mamlakatlarda "vitaminlar bombasi" deb atashadi. Vitaminga boyligi bo'yicha tengi yo'q. Dunyoda yiliga kamida 4 274 870 tonna kivi mahsuloti yetishtiriladi. Xitoy yiliga 2 390 287 tonna kivi yetishtirish bilan dunyodagi eng yirik kivi ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Ikkinchi o'rinda 523 595 tonna mahsulot bilan Italiya turadi. Uchinchi o'rinda esa Yangi Zelandiya 434 048 tonna mahsulot yetishtiradi.

So'nggi besh yilda kivi yetishtirish hajmi ikki barobar, ayrim mamlakatlarda esa hatto 4-5 marta ortgan. Shunday bo'lsada, unga bo'lgan talab yetishtirilayotgan hajmdan yuqoridir. Hatto



ushbu mevani yetishtirish hajmi aholi jon boshiga Yangi Zelandiya va Italiyada – 3,5-3,9 kg, Bolgariya – 211 g, Yaponiya – 147 g, AQSh va Fransiya – 98 grammdan ortmayapti.

Kivi o'simligi respublikamizda faqat manzarali o'simlik sifatida o'rganilgan, mevali o'simlik sifatida o'rganilmagan, asosan mevalari import mahsulot sifatida chet davlatlardan yuqori narxlarda respublikamizga kirib keladi.

"2022-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekistonga 6 ta xorijiy davlatdan qiymati 2,4 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 3,7 ming tonna kivi mahsuloti import qilingan. Kivi importi 2021-yilning mos davri bilan solishtirilganda 1,5 ming tonnaga oshgan. 2022-yilning 9 oyida O'zbekiston eng ko'p kivi import qilgan davlatlar: Eron – 3,1 ming tonna, Turkiya – 483 tonna, Xitoy – 122 tonna, Qozog'iston – 33 tonna, Italiya – 8,4 tonnani tashkil etadi" va import hajmi yildan yilga oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini qishloq xo'jaligiga oid bandida "eksportbop mahsulotlar yetishtirish, hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish" ustuvor vazifalardan biri sifatida alohida belgilab qo'yilgan.

Kivi (shirin aktinidiya) – *Actinidia deliciosa* yoki *Actinidia chinensis* dunyoning ko'pgina subtropik iqlimli mintaqalarida keng maydonlarda yetishtiriladigan mevali o'simlik hisoblanadi. Taksonomik turkumiga ko'ra uni *Actinidia chinensis* var. *Deliciosa* (A.Chev.) yoki *Actinidia chinensis* var. *Hispida* yoki *Actinidia latifolia* var. *deliciosa* A.Chev. deb ham atashadi.

Ko'pgina xalqlarda kivini xitoy krijovnigi deb ham atashadi. Ammo V.Bushnev ushbu o'simlikning eng to'g'ri nomlanishi, bu

– Xitoy shirin aktinidiyasi (*Actinidia chinensis* var. *deliciosa*) deb ta'kidlagan.

Kivi yoki shirin aktinidiya subtropik mintaqalarda madaniy holda yetishtirilishi, yaqindagina boshlangan yangi mevali o'simlik turi hisoblanadi. Dastlab ushbu aktinidiya turini Xitoy aktinidiyasining (*A. chinensis* Var, nisbida) tur xili deb hisoblashgan.

Shirin aktinidiyaning zamonaviy "kivi" nomini Yangi Zelandiyalik mashhur seleksioner olim A. Ellison XX asrning 60-yillarida bergan. Yangi Zelandiyaning milliy timsoli bo'lgan, mamlakatning ko'pgina markalari va emblemalarida rasmi turadigan "kivi" qushiga juda ham o'xshaganligi sababli, uni shunday nom bilan atagan.

Actinidia avlodi *Actinidiaceae* oilasiga mansub bo'lib, 36 turni o'z ichiga oladi. Ushbu o'simliklar ko'p yillik yirik, yog'ochlashgan lianalar yoki chirmashib o'suvchi butasimon o'simliklar bo'lib, subtropik, tropik, qisman mo'tadil iqlimli mintaqalarda, xususan, Sharqiy Osiyo – Hindixitoy, Xitoy, Himolayning Shimoliy-Sharqiy qismi, Rossiyaning Primor o'lkasi, shuningdek, alohida turlari Malakka yarim orolida uchraydi. Hozirgi vaqtda uning rivojlanish markazi Janubiy-G'arbiy Xitoy, xususan Yunnan provinsiyasi hisoblanadi. Aktinidiyaning aksariyat turlari faqatgina manzarali ahamiyatga egadir.

Aktinidiyaning bugungi kunda eng ko'p yetishtiriladigan turi – xitoy aktinidiyasi yoki shirin aktinidiya (*Aktinidiya delikatesnaya*) bo'lib, uning navlari "kivi" deb ataladi. XX asr boshlariga qadar u faqatgina Xitoyda yetishtirilgan, so'ngra Yangi Zelandiyaga olib kelingan. 1940 yillarda Yangi Zelandiyada sanoat asosida yetishtirila boshlangan.

Hozirgi kivi mevasi – aktinidiya o'simligini madaniylashtirish natijasi. Ushbu o'simlikni Xitoydan bundan qariyb 700 yil

muqaddam kashf qilishgan. XIX asrning ikkinchi yarmida esa Yangi Zelandiyada uning seleksiyasi bilan olimlar shug'ullana boshlashgan. Buning natijasida madaniy navlarning mevalari yovvoyi ajdodlarinikiga nisbatan 3 marta kattaroq bo'lgan.

Biologik xususiyatlari:

Shirin aktinidiya – yirik liana yoki chirmashuvchi butasimon o'simlik bo'lib, bo'yi 9 m gacha etadi. Barglari to'kiladi, uzun bandlarda navbatli joylashadi, uzunligi 7,5-12,5 sm keladi. Shakli tuxumsimon yoki deyarli yumaloq, asosi o'yiqlikchali. Yosh barglari qizg'ish tuk bilan qoplanadi, katta barglarining ustki tomoni och yashil, ostki tomoni xira, tomirlari ko'rinib turadi. Gullari xushbo'y, odatda ikki jinsli, kamdan kam bir jinsli, barg qo'ltiqlarida yakka yoki uchtagacha guruh bo'lib joylashadi. Tojbargi dastlab oq, so'ngra yozilgan sari sarg'ish tus oladi. Changchilari barcha gullarda ko'p sonli, ammo urg'ochi gullarda ular steril holatda



Kivi o'simligining gullari



Kivi o'simligining ko'chatlari

bo'ladi. Xitoy yoki shirin aktinidiyaning mevalari uzunchoq-tuxumsimondan sharsimongacha, odatda diametri 5-6 sm gacha bo'ladi, rangi jigarrang, tuk bilan qalin qoplangan. Eti yashil, kamdan-kam sariq, oq yoki qo'ng'ir. Urug'lari mayda, qora yoki to'q binafsharang. Uning ildiz tizimi asosan tuproqning 0-40 sm lik qatlamida joylashadi Biroq, ushbu mevali o'simlik yaxshi rivojlanishi uchun zichligi 1,3 g/sm² dan oshmaydigan kuchli tuproqlarni talab etadi.

Tinim davri – 8°C dan past haroratda kechadi; shira harakati – kunlik o'rtacha harorat 8-10°C dan oshganda 10-15 kun davom etadi; kurtaklarning yozilishi, novda va to'pgullarning rivojlanishi – 10-20 °C haroratda 30-35 kun; gullash – 15-20 °C haroratda 10-12 kun davom etadi; mevalarining to'lishishi – yetishtirish joyining yuqori haroratli davrida 60-70 kun davom etadi;

mevalarining pishishi – kunlik o'rtacha harorat 15-8 °C haroratga pasayganda 80-90 kun davom etadi.

Shirin aktinidiyaning erkak gullarini urg'ochi gullaridan farqlash u qadar murakkab emas. Urg'ochi gullarining markaziy qismida yirik urug'chisi yaqqol ko'rinib turadi. Kivining changlatuvchi navlarining erkak gullarida esa urug'chi rudiment ko'rinishida bo'lib, deyarli ko'rinmaydi. Muallif kivi yetishtirishda har 5-6 ta urg'ochi o'simlikka bitta erkak o'simlik hisobidan ekishni tavsiya etgan.

O'zbekistonda ham Actinidia Lindl avlodiga mansub ko'plab turlarning gullash biologiyasi o'rganilgan. Boshqa mamlakatlarga yaqin bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham shirin aktinidiyaning gullashi mayning oxiri – iyun oyining boshlariga to'g'ri keladi.

Shifobaxshlik xususiyatlari

Naviga bog'liq ravishda bir dona kivi mevasining o'rtacha vazni 50 dan 150 grammgacha boradi. Uning katta qismini suv tashkil etadi – 84 %. Qariyb 10% kletchatka, disaxaridlar, monosaxaridlar, nikotin kislotani tashkil etadi. Bir dona mevaning kaloriyaliligi 48 kilokaloriya. Bir meva tarkibidagi C vitaminining miqdori insonning ushbu vitamininga bo'lgan bir kecha-kunduzlik talabiga nisbatan 200% (185 mg dan ortiq) ni tashkil etadi. Demak, yarimta kivi iste'mol qilish bilan S vitamininga bo'lgan kunlik talab butunlay qoplanadi. Yaxshi pishgan mevalar tarkibida V1, V2, V4, V6, V9, RR vitaminlari, bundan tashqari uning tarkibida K mikroelementi ham ko'p bo'lib, u inson yurak-qon tomir tizimi kasalliklariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; kalsiy, fosfor, magniy, ftor yuqori shifobaxsh ta'sirga ega hisoblanadi, temir, kobalt, mis, marganes, nikel esa qon hosil bo'lish jarayonlarida ishtirok etadi, suv almashinuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qon plazmasining osmotik bosimini me'yorlashtiradi,

shuningdek, ular gormonlar, vitaminlar va fermentlarning tarkibiy elementlari hisoblanadi.

Shu bois ushbu meva quyidagi kasalliklarda buyurilgan:

- singa;
- anemiya;
- tuberkulyoz;
- revmatizm;
- oshqozondagi og'irlik;
- surunkali qabziyat;
- ovqat hazmining buzilishi;
- yuqori arterial qon bosimi;
- ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari.

Kivi o'simligi navlarining tezroq hosilga kirishini ta'minlash uchun ularni payvand qilib ko'paytirishni olimlar tavsiya etishgan. Payvand qilingan ko'chatlar 2-3 yildan boshlab sanoat asosida



hosil bera boshlaydi va to'liq hosilga qalamchalangan ko'chatlarga nisbatan 4-5 yil oldin kirishadi.

Kivining hosildorligi bir tupda 100-120 kg gacha etadi. Sanoat bog'larida esa birmuncha kamroq bo'lib, 60-80 kg gacha, ya'ni gektariga 20-40 tonnagacha hosil olish mumkin. Bunday yuqori hosilni olish uchun ko'chatlarni sifatli tayyorlash, so'ngra sanoat plantatsiyalarida tegishli agrotexnik tadbirlarni sifatli bajarish talab etiladi.

Ekishda quyidagicha o'lchamda chuqur qaziladi: 0,5x0,5x0,5 m. Kivi yaxshi zovurlangan va gumusga boy tuproqlarni xush ko'radi. Bunda eng yaxshi nisbat 1 qism bog' tuprog'iga 1-2 qism yaxshi chirigan go'ng, biogumus yoki kompost hisoblanadi. Ekishda unutmazlik lozimki, kivining ildiz bo'g'zi tuproq sathidan 3 sm yuqorida joylashishi lozim, aks holda chuqur ekish o'simlikning nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Yangi Zelandiyada kivining qator yirik mevali navlari yaratilgan.



Uzoq davom etgan jarayon, hamda Yangi Zellandiyalik mashhur seleksioner olimlar Dj. Makgregor, Aleksandr Ellison, Bruno Prosto va Xeyvort Raytlarning izlanishlari natijasida mevasining og'irligi 120 g dan oshadigan dunyoga mashhur Bruno, Ebbot, Ellison, Monti, Xeyvord kabi navlar olingan. Olingan ushbu mashhur navlar shu olimlarning hurmatiga ularning nomi bilan atalgan.

Olimlar ushbu navlarni ertapishar, o'rtapishar va kechpisharlar guruhiga ajratgan holda tavsiflashgan. Olimlarning tavsiya qilishicha, sanoat plantatsiyalari, fermer va tomorqa xo'jaliklari uchun ertagi navlar sifatida Ellison, o'rtagi – Bruno, Monti, kechki – Xeyvord, Xeyvord K-10, Kivaldi navlarini qo'llash maqsadga muvofiq. Ular orasida eng mahsuldor navlar sifatida Xeyvord, Monti, Bruno, Kivaldi, Xeyvord K-10 navlari alohida ta'kidlangan.

Kivi yetishtirish uchun eng yaxshi tuproq – sariq tuproqlar hisoblanadi. Ushbu sharoitlarda aktinidiyadan yuqori hosil olish uchun uni vegetatsiya davomida 6000-8000 m³/ga me'yorda eng kamida 5 marta sug'orilishi tavsiya etilgan.

Kivishunos olim N.V.Kozakning yozishicha, shirin aktinidiyani tez-tez sug'orish lozim, chunki uning ildiz bo'g'zi atrofidagi tuproq doimo nam holatda bo'lishi kerak. Uning barglari ham suvni ko'p talab qiladi. Uning normal o'sib rivojlanishi uchun havoning nisbiy namligi ham yuqori bo'lishi kerak. Shu bois quruq ob-havo sharoitida aktinidiyaga suv purkaladi. Bu tadbirni ertalab yoki kechki soatlarda amalga oshirish zarur. Yozning birinchi yarmida 1-2 marta suyuq oziqlantirish o'tkaziladi, buning uchun yangi mol go'ngi 1:10 nisbatda suyultiriladi yoki xlorisiz mineral o'g'itlar eritmasi bilan oziqlantiriladi (masalan, 10 l suvga 30 g azofoska.)

N.V.Kozak Rossiyaning janubi va Ukraina sharoitlarida kivi yetishtirish uchun qimmatli tavsiyalarini bergan. Uning tavsiyalariga ko'ra; eng yaxshi navlar sifatida Matua va Xeyvord



navlari tavsiya etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, sanoat kivi bog'larini yosh davrida tanadan 40 sm masofaga quyidagicha o'g'it solinadi: N (azot) – 20 gramm/m²; P (fosfor) – 10 gramm/m²; K (kaliy) – 20 gramm/m² Hosilga kirgach o'g'itlar miqdori quyidagicha bo'lishi tavsiya etilgan: o'g'itlar tup atrofiga martdan iyungacha 2–3 marta beriladi (har 5 m² ga N – 100 g, P – 50 g, K – 100 g). Tomchilatib sug'orishda har 3 m² maydonga bitta tomchilatish tizimi o'rnatiladi.

Pasttekislik sharoitida shirin aktinidiyani yetishtirish texnologiyasi o'ziga xos parvarishlash, tuproqqa va butun plantatsiyaga ishlov berishni talab etadi. Buning uchun maydonni 20-25 sm chuqurlikda haydash, rejalashni o'tkazish, 40x40 sm o'lchamda uyachalar qazib chiqish, unga chirigan go'ng va mineral o'g'itlar solish talab etiladi. O'simliklarni 4x4 m sxemada joylashtirish va erkak, hamda urg'ochi navlari qatorini 1:6 nisbatda belgilash tavsiya etiladi. Plantatsiya uchun ikki yarusli tayanch tavsiya etilgan.

Shuni alohida ta'kidlab utish joizki, adabiy manbalarda (shirin aktinidiya) kivi o'simligidan yuqori va sifatli hosil olish borasida olimlarning olib borgan tadqiqotlari va bergan ilmiy asosdagi tavsiyalari ma'lum tuproq turi va iqlim sharoitlariga taalluqlidir. O'zbekiston tuproq-iqlimi sharoitida esa bunday tadqiqot va tavsiyalar juda ham chegaralangan bo'lib, olimlar ushbu mevali o'simlikni kam tadqiq qilishib, o'simlikning boshqa turlari ustida esa kuplab ilmiy tadqiqotlar olib borishgan (manzarali o'simlik sifatida). Shu bois respublikamiz bog'dorchiligi sohasi uchun nisbatan yangi bo'lgan ushbu subtropik meva o'simligini muvaffaqiyat bilan ko'paytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar yetishtirish, uning samarali sanoat bog'larini barpo etish va yuqori sifatli hosil olish uchun bu borada alohida yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib, olingan natijalarni keng miqyosda sinab ko'rish amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

4.3. JIHOZ VA USKUNALAR. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI

Issiqxonalarda kivi yetishtirish quyidagicha amalga oshiriladi: kivi o'simligi iqlim sharoitidan kelib chiqib, O'zbekiston hududida "issiqxona" usulida yetishtiriladi.

Issiqxona, noqulay iqlim sharoitida ekinlarga sun'iy muhit (harorat, yorug'lik, namlik va boshqalar) yaratadigan inshootdir. Asosan, mavsumdan tashqari davrlarda mahsulot yetishtirish, issiqxona va ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladi.

Ishlatiladigan resurslar

Issiqxona oynaband yoki polimer plyonka, stekloplast va hokazolar bilan o'ralgan bo'ladi. Yog'och yoki temir, po'lat, alyuminiy kabi metall uskunalardan tiklanadi. Issiqxonalarining xilma-xil turlari mavjud. Ular foydalanish muddatlari va davomiyligiga qarab, qishki hamda bahorgi; vazifasiga ko'ra, ko'chat o'stiriladigan va sabzavot yetishtiriladigan; sabzavotlarni o'stirish texnologiyasiga qarab — tuproqli va gidropon; ichki jihozlarga qarab - so'kchakli va tuproqli turlarga bo'linadi. Konstruktiv yechimi jihatdan issiqxonalar nur o'tkazuvchi nishab tomonlari miqdoriga qarab, bir, ikki va ko'p tomonlama nishabli turlarga bo'linadi.

Joylashuvi

O'zbekistonda, asosan, pomidor, bodring, rezavor ekinlar, sabzavot o'simliklari ko'chatlari, shuningdek, kivi va manzarali o'simliklar issiqxonada yetishtiriladi. Yozi qisqa bo'lgan o'rta va shimoliy mintaqalarda issiqxonada turli sabzavot, qishloq xo'jaligi ekinlari yil bo'yi o'stiriladi, hosil olinadi va o'simliklarning yangi navi, hamda duragaylarini yetishtirish, boshqa ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Qishki issiqxonalar yil bo'yi foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, ularda sabzavotlar bahorgi issiqxonada o'stirish uchun ko'chatlar yetishtiriladi. U metall yoki temir-betondan ishlanadi. Bahorgi issiqxonalar yengil konstruksiyalardan sabzavotlar yerda o'stiriladigan qilib quriladi. Biologik issiqlik yoki quyosh nuri bilan isitiladi. Quyosh nuridan mukammal foydalanish uchun bir nishabli issiqxona tomi (qiyaligi 33-45°) janubga, ikki, ko'p nishablilarniki esa (29-33°) sharq va g'arbga qaratib quriladi. Issiqxona shakli jihatidan ham fonarsimon, angar va blokli kabi bir necha turlarga bo'linadi. Issiqxonalarda o'simlik tuproqda (geoponika), tuproqsiz (yoki gidropika) muhitda o'stirilishi mumkin.


5. INFRASTRUKTURA



5.1. INFRASTRUKTURA

Loyihani amalga oshirish uchun maqbul joydan issiqxona kompleksi qurish uchun binolari bilan yer ijaraga olinadi. Zarur jihoz va uskunalarni binoda joylashishi uchun binoni moslashtirish zarur bo'ladi.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun binolar va joy tanlash alohida e'tibor talab qiladi. Issiqxona kompleksi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.



Bundan tashqari issiqxona kompleksi joylashgan hudud 380V li elektr energiyasi va suv ta'minoti bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

6. MARKETING KONSEPSIYASI




6.1. MARKETING KONSEPSIYASI

Zamonaviy dunyoda loyiha faqat iste'molchilarning talablarini e'tiborsiz qoldirmasa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talablarni tadqiq qilish va mijozlarning maksimal talablarini qondirish samaradorligini oshirish uchun yangi mijozlarni qo'lga kiritishni, hamda mavjud mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, mahsulot yetkazib berishni davom ettirmoqchi bo'lgan tadbirkor, ular haqiqatan ham nimani xohlashlarini va ularga nima kerakligini bilishi kerak.

Bozorni segmentatsiya qilish turli xil obyektlar bo'yicha amalga oshiriladi, ammo marketingda eng katta e'tibor iste'molchilarning xohishlariga qaratiladi. Shu bilan iste'molchilar tashkilotning marketing harakatlariga turli xil qarashlari bo'yicha bozorni segmentatsiya qilishi kerak bo'ladi.

Bozor segmenti – o'xshash afzalliklarga ega bo'lgan, bir xil xususiyatlarga xos va marketing takliflariga bir xil javob beradigan iste'molchilar majmui.



Taklif tuzilmasidan kelib chiqib, bozorning quyidagi makrosegmentlarini ajratish kerak:

- **iste'mol bozori**
- **sanoat bozori.**

Iste'mol bozori. Bizning ushbu segmentdagi iste'molchilarimiz respublikaning turli yoshdagi, har xil daromad darajasi va oilaviy ahvoli turlicha bulgan barcha aholisidir.

O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. BMT Aholishunoslik jamg'armasining jahon reytingida respublika 41-o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2024-yil 22-aprel holatiga 37 milliondan ortiq kishini tashkil etdi.

